

Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to‘lash orqali moddiy rag‘batlantirish maqsadida saralash test sinovini o‘tkazish uchun davlat va huquq asoslari fanidan test topshiriqlari spetsifikatsiyasi

Mazkur spetsifikatsiyaga amaldagi o‘quv me’yoriy hujjatlarga muvofiq qo‘srimcha, o‘zgartirish va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

1. Test topshiriqlarining qo‘llanishi

Spetsifikatsiya Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni davlat va huquq asoslari fanidan oylik ustamalar to‘lash orqali moddiy rag‘batlantirish maqsadida saralash test sinovlarini o‘tkazish uchun o‘qituvchilarining bilim darajasini aniqlab berishga mo‘ljallangan.

2. Test sinovi topshiriqlarining mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar

– Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini va oliy ta’lim muassasalarini tomonidan tasdiqlangan fan dasturi;

– Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o‘rta ta’lim uchun davlat va huquq asoslari fanidan takomillashtirilgan o‘quv dasturi, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi vaziri jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘ridsida” 2022-yil 2-avgustdaggi VM-425-son qarori;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.

3. Test sinovi topshiriqlarining mazmuni va tuzilishi

Davlat va huquq asoslari fanidan test topshiriqlari tegishli vazirlik va idoralar tomonidan tasdiqlangan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini va fan dasturlari asosida ishlab chiqiladi.

Test topshiriqlari Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to‘lash orqali moddiy rag‘batlantirish maqsadida saralash test sinovini o‘tkazish uchun davlat va huquq asoslari fani bo‘yicha tayyorgarlik darajasini aniqlab berishga yo‘naltiriladi. Ular o‘qituvchilarda davlat va huquq asoslari fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirganlik darajasini sinovdan o‘tkazadi.

4. Test topshiriqlari tuzilishi.

Test topshiriqlari quyidagi test turlaridan iborat bo‘lishi mumkin:

Y1 – to‘rtta javob variantli, bitta to‘g‘ri javobli yopiq test;

Y2 – to‘rttadan ko‘p javob variantli, bir nechta to‘g‘ri javobli yopiq test;

Y3 – to‘rtta savolga to‘rtta to‘g‘ri javobni mos qo‘yadigan yopiq test ;

Y4 – har biri “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deb belgilanadigan to‘rtta savoldan

iborat yopiq test.

Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimlanishiga asoslanib tuziladi. Test varianti, asosan, (Y1) to‘rtta javob variantli, bitta to‘g‘ri javobli yopiq test topshiriqlaridan iborat bo‘ladi.

Shuningdek, test topshiriqlari varianti turli (oson, o‘rta, yuqori) qiyinlik darajasida tuzilgan test topshiriqlaridan tashkil topadi.

Davlat va huquq asoslari fanidan barcha test topshiriqlari variantlarida qiyinlik darajasi bir xilda saqlanib, quyidagicha taqsimlanadi:

| Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi | Topshiriqlar soni | Topshiriqlar ulushi (%) |
|---|--------------------------|--------------------------------|
| Oson | 10 | 25 |
| O‘rta | 20 | 50 |
| Yuqori | 10 | 25 |
| Jami: | 40 | 100 |

Davlat va huquq asoslari fanidan shakllantiriladigan variant, 10 ta oson, 20 ta o‘rta va 10 ta yuqori qiyinlik darajasidagi jami 40 ta test topshirig‘idan iborat bo‘ladi.

Test topshiriqlari variantlarining ekvivalentligi quyidagicha ta’milanadi:

- har bir variant maxsus kompyuter dasturi asosida test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimlanishiga va ushbu spetsifikatsiyaga muvofiq shakllantiriladi.

- taqdim etiladigan barcha variantlardagi test topshiriqlari qiyinlik darajasining bir xilligi ta’milanadi;

- turli (oson, o‘rta, yuqori) qiyinlik darajasidagi barcha test topshiriqlarini tuzishda darsliklardagi qo‘srimcha ma’lumotlar, davlat va huquq asoslari faniga oid tayanch iboralar, atamalar, topshiriqlar, lug‘atlar, kodekslardan namunalar va rasmlardagi ma’lumotlardan foydalaniladi.

5. Test topshiriqlarining mazmun, ko‘nikma va malakalar bo‘yicha taqsimlanishi.

Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimotida aks etgan bo‘limlarga oid mazmunni hamda 15 ta paragraf, 15 ta punktni o‘z ichiga oladi.

Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimoti:

Davlat va huquq asoslari

| Paragraf | Punkt | Mavzu | Qiyinlik darajasi | | |
|--|-------|--|-------------------|-------|--------|
| | | | oson | o‘rta | yuqori |
| Davlat va huquq nazariyasi predmeti va metodlari | | | | | |
| 1 | 1 | Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Davlat va huquq nazariyasi fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi. Davlat va huquq nazariyasining yuridik fanlar tizimidagi o‘rni. Davlat va huquq nazariyasi fanining metodlari. Davlat va huquq nazariyasi fanining funksiyalari. O‘quv moduli sifatida davlat va huquq nazariyasining tuzilishi. Jamiyat hayotini demokratik yangilashda davlat va huquq nazariyasi fanining roli. | | | |
| Davlat va jamiyat, Davlat va huquqning kelib chiqishi | | | | | |
| 2 | 1 | Jamiyat tushunchasi. Jamiyat mavjud bo‘lishi shakllarining xilma-xilligi. Jamiyat rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar. Davlatgacha bo‘lgan jamiyatlarda ijtimoiy normalar va ijtimoiy hokimiyat. Davlat – jamiyat mavjud bo‘lishining bir shakli sifatida. Davlat va huquqning vujudga kelishi to‘g‘risidagi nazariyalar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida jamiyat, davlat va huquq masalalari. | | | |
| Fuqarolik jamiyatni asoslari | | | | | |
| 3 | 1 | Fuqarolik jamiyatni tushunchasi, belgilari, tarkibiy elementlari. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy asoslari. Huquqiy davlat nazariyasi. Huquqiy davlatning asosiy belgilari va prinsiplari. Huquq ustunligi konsepsiysi. | | | |
| Davlat boshqaruving tashkil etilishi | | | | | |
| 4 | 1 | Davlatning shakllari tushunchasi va uning tarkibiy elementlari. Davlat shakllarining rivojlanishi va o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar. Davlatning boshqaruvi shakllari: respublika va monarxiya. | | | |
| Axloq va huquq. Huquqiy munosabatlar | | | | | |
| 5 | 1 | Ijtimoiy munosabatlar tushunchasi. Ijtimoiy normalar tizimi: urf-odat, diniy, axloqiy normalar, jamoat tashkilotlari qoidalari va boshqa ijtimoiy normalar. Ijtimoiy va huquq normalarning umumiyligi va o‘ziga xos xususiyatlari. Huquq-ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solishning turi sifatida. Huquq prinsiplari. Huquqning funksiyalari. Huquqning mohiyati haqidagi nazariyalar. Huquqiy munosabatlar | | | |

| | | | | |
|--|--|--|--|--|
| | | tushunchasi, belgilari va turlari. Huquqiy munosabatlarning yuzaga kelish asoslari. Huquqiy munosabatlar tarkibi. Yuridik fakt tushunchasi va turlari. Huquqdagi prezumpsiyalar va fiksiyalar. | | |
|--|--|--|--|--|

Huquqbazarlik va huquqiy javobgarlik

| | | | | |
|---|---|--|--|--|
| 6 | 1 | Huquqbazarlik tushunchasi, belgilari va turlari. Huquqbazarlikning yuridik tarkibi. Yuridik javobgarlik: tushunchasi, belgisi, turlari. Yuridik javobgarlik maqsadi, funksiyalari va prinsiplari. Yuridik javobgarlikni istisno qiluvchi holatlar. O‘zbekiston Respublikasida yuridik javobgarlikni liberallashtirish borasidagi sud-huquq islohotlari | | |
|---|---|--|--|--|

Konstitutsiyaviy huquq asoslari

| | | | | |
|---|---|---|--|--|
| 7 | 1 | Asosiy prinsiplar. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. Jamiyat va shaxs. Ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi. Davlat hokimiyatining tashkil etilishi. Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi. | | |
|---|---|---|--|--|

Xalqaro huquq. Davlatning tashqi siyosati

| | | | | |
|---|---|--|--|--|
| 8 | 1 | O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risidagi qonunchilik. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish tartibi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini e’lon qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish va saqlash. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini bajarishga doir chora-tadbirlar. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasining haqiqiy emasligi, uning amal qilishini to‘xtatib turish yoki uni tugatish. | | |
|---|---|--|--|--|

Ma’muriy huquq va ma’muriy javobgarlik

| | | | | |
|---|---|---|--|--|
| 9 | 1 | Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilik. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikning amal qilishi. Ma’muriy huquqbazarlik va ma’muriy javobgarlik. Ma’muriy jazo va majburlov chorasi. Ma’muriy jazoning qo’llanishi. | | |
|---|---|---|--|--|

Fuqarolik huquqi asoslari

| | | | | |
|----|---|---|--|--|
| 10 | 1 | Fuqarolik qonunchiligi. Fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishi. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish. Fuqarolar (jismoniy shaxslar). Yuridik shaxslar. Davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtiroychisi sifatida. Bitimlar va vakillik. Vakillik va ishonchnoma. Muddatlar. Da’vo muddati. Mulk huquqining vujudga kelishi va uning bekor bo‘lishi. Majburiyat huquqi. Majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash. Shartnoma to‘g‘risida umumiy qoidalar. Shartnoma tushunchasi va shartlari | | |
|----|---|---|--|--|

Mehnat huquqi asoslari

| | | | | |
|----|---|--|--|--|
| 11 | 1 | Mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ | | |
|----|---|--|--|--|

| | | | | |
|--|--|--|--|--|
| | | hujjatlar. Mehnatga oid munosabatlarning subyektlari. Jamoa shartnomalari va kelishuvlari. Mehnat shartnomasi. Mehnat shartnomasini o'zgartirish. Mehnat shartnomasining bekor qilinishi. Ish vaqt. Dam olish vaqt. Ta'tillar. | | |
|--|--|--|--|--|

Oila huquqi asoslari va nikoh

| | | | | |
|----|---|---|--|--|
| 12 | 1 | Oila to'g'risidagi qonunchilik hamda ularning vazifalari. Oilaviy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish. Nikoh. Nikoh tuzish tartibi va shartlari. Qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash. Ota-onha hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlar. Oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlar. Ota-onha qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmasan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish. | | |
|----|---|---|--|--|

Jinoyat huquqi va jinoiy javobgarlik

| | | | | |
|----|---|---|--|--|
| 13 | 1 | O'zbekiston Respublikasining jinoyat to'g'risidagi qonunchiligi. Javobgarlik asoslari. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar. Jazo va uni tayinlash. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish. Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari. | | |
|----|---|---|--|--|

Moliya huquqi

| | | | | |
|----|---|---|--|--|
| 14 | 1 | Budjet to'g'risidagi qonunchilik. Budjet tizimi tushunchasi va prinsiplari. Budjet tizimi budgetlari. O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti. O'zbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi. Budjet tizimi budgetlarining daromadlari. Davlat budgetini va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlarini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda tasdiqlash. Budjet tizimi budgetlarini ijro etish tartibi. Budjet hisobi va hisoboti. Budjet tizimi budgetlarining ijrosini nazorat qilish. | | |
|----|---|---|--|--|

Ekologiya huquqi asoslari

| | | | | |
|----|---|--|--|--|
| 15 | 1 | O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilishga doir qonunchiligi. Davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining tabiatni muhofaza etishga taalluqli huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi aholisining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatlar. Atrof tabiiy muhit sifatini normalivlar bilan tartibga solish. Tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish. Ekologiya ekspertizasi. Ekologik nazorat. Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy chora tadbirlari. Favqulodda ekologiya vaziyatlari. Xo'jalik faoliyati va boshqa yo'sindagi faoliyatga doir ekologiya talablari. Tabiatni muhofaza qilishga doir qonunchilikni | | |
|----|---|--|--|--|

| | | | | |
|--|---|-----------|-----------|-----------|
| | buzganlik uchun javobgarlik. Tabiatni muhofaza qilishga oid nizolarni hal qilish. | | | |
| | Jami | 10 | 20 | 10 |

6. Ajratilgan vaqt (javoblar varaqasini to‘ldirish bilan birga):

- 40 ta test topshirig‘i uchun 80 daqiqa.

7. Test topshiruvchilar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Saydullaev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –Toshkent: TDYU, 2018. – 220 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
3. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risidagi qonuni (O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.02.2019 yildagi O‘RQ-518-son).
4. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.
5. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
6. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
7. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.
8. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
9. O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi.
10. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni. (O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.12.1992-yildagi 754-XII-son)

Internet saytlari:

1. lex.uz
2. www.natlib.uz

**Izoh: Ushbu spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi bilan kelishilgan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Ilmiy-metodik kengashning 2022-yil 30-noyabrdagi 6-sod yig‘ilishi qarori bilan ma’qullangan.*